Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK:9:433:91:910
ORCID: 0009-0000-5532-0616

QADIMGI TURKLARDA O‘LIM VA DAFN MAROSIMLARI: TARIXIY TAHLIL

Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Katta o‘qituvchi
Email: muxriddin241992@gmail.com
Jo‘rakulova Mukambar Tursunmurod qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix yo‘nalishi talabasi
Email: mukambarjurakulova@dtpi.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi islomgacha bo‘lgan turkiy xalqlar o‘lim haqidagi tasavvurlarini va marhumlarni dafn etish marosimlarining o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asosda o‘rganishdan iboratdir. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy yondashuv, manbashunoslik tahlili hamda arxeologik va etnografik ma’lumotlarga asoslangan metodlar qo‘llanildi. Qadimgi turk jamoalari insonni hayotda tutib turuvchi mohiyat ruh ekaniga ishonib, uni “tin” va “suna” tushunchalari bilan ifodalashgan. O‘lim ular uchun yakun emas, balki yangi hayotning boshlanishi sifatida talqin qilingan. Shu bois janglarda halok bo‘lish sharaf sanalgan, kasallikdan o‘lish esa zaiflik sifatida baholangan. Shamanistik e’tiqodlar asosida dafn marosimlari shakllangan bo‘lib, mumiyolash, ot va shaxsiy buyumlarni marhum bilan birga qo‘yish, ayrim hollarda esa uni kuydirish amaliyotlari keng tarqalgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turklarning o‘lim haqidagi qarashlari ruhning davomiyligi va ikkinchi hayot g‘oyasiga asoslangan bo‘lib, bu qarashlar keyinchalik islomiy aqidalar bilan uyg‘unlashib ketgan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi turkiy xalqlarda o‘lim va dafn marosimlari diniy-falsafiy dunyoqarash, ijtimoiy maqom va kosmologik qarashlarning uzviy ifodasi bo‘lib xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: ruh, marosim, mumiyolash, shamanizm, ikkinchi hayot, kosmologiya, jang, e’tiqod, ijtimoiy maqom, an’ana

СМЕРТЬ И ПОГРЕБАЛЬНЫЕ ОБРЯДЫ У ДРЕВНИХ ТЮРОК: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: Цель данного исследования – изучить представления древних тюрков о смерти и своеобразие погребальных обрядов в доисламский период. В работе применены историко-сравнительный анализ, источниковедческий подход, а также данные археологии и этнографии. Для тюрков душа являлась сущностью, поддерживающей жизнь, и выражалась терминами «тын» и «суна». Смерть трактовалась как начало новой жизни. Поэтому гибель в бою считалась честью, а смерть от болезни – слабостью. Погребальные обычаи основывались на шаманистских верованиях: мумификация, захоронение вместе с конями и личными предметами, а также практика кремации. Результаты показывают, что воззрения тюрков о смерти базировались на идее продолжения души и вере во «вторую жизнь», что впоследствии органично интегрировалось в исламскую доктрину. В заключение отмечается, что погребальные традиции древних тюрков отражали религиозно-философский миропорядок, социальный статус и космологические представления.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Ключевые слова: душа, обряд, мумификация, шаманизм, вторая жизнь, космология, битва, вера, статус, традиция

DEATH AND BURIAL RITUALS AMONG ANCIENT TURKS: A HISTORICAL ANALYSIS

Abstract: The purpose of this study is to examine the perceptions of death among pre-Islamic Turkic peoples and the distinctive features of their burial practices. The research employs historical-comparative analysis, source criticism, as well as archaeological and ethnographic data. For the ancient Turks, the soul was considered the essence that sustains life, conceptualized in terms of "tin" and "suna." Death was not seen as the end but as the beginning of a new existence. Hence, dying in battle was viewed as honorable, whereas death from illness was regarded as weakness. Burial practices were rooted in shamanistic beliefs, involving mummification, interment with horses and personal belongings, and, in some cases, cremation. The findings demonstrate that Turkic conceptions of death were founded on the idea of the soul's continuity and a belief in a "second life," which later integrated seamlessly with Islamic doctrines. In conclusion, ancient Turkic burial customs reflected the religious-philosophical worldviews, social status, and cosmological interpretations of their time.

Keywords: soul, ritual, mummification, shamanism, afterlife, cosmology, warfare, belief, hierarchy, tradition

KIRISH: Insoniyat qadimdan beri eng ko‘p mushohada qilgan mavzulardan biri – o‘limdir. Insonni hayotda tutib turuvchi mohiyatning nima ekani, o‘limdan keyin ikkinchi bir hayot mavjudmi yoki yo‘qmi, agar mavjud bo‘lsa, uning qanday xususiyatlarga ega ekanligi doimo inson ongini band qilib kelgan. Bu masalalar diniy hayotning ham muhim qismini tashkil etadi. Turklar islom dinini qabul qilishdan avval murakkab diniy tuzilishga ega bo‘lgan edilar. Mavzuga oid tadqiqotchilar turklar tarixning erta davrlarida, eng kechida Xunlar davrida, monoteistik (yakkaxudolik) diniy qarashlarga ega bo‘lganliklarini ta’kidlaydilar. Asosida Ko‘k Tangri e’tiqodi yotgan bu diniy tizim tarkibida shamanistik urf-odat va marosimlar ham o‘ziga joy topgan. Mazkur diniy tizim doirasida o‘limning qanday ma’no va qadriyat kasb etganini o‘rganish muhimdir. Chunki o‘lim inson ongida va jamiyat hayotida qanday talqin qilinishidan kelib chiqib, bu dunyo hayotining shakllanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Eng sodda ifoda bilan aytganda, agar o‘limni yakun deb bilib, ikkinchi bir hayotning mavjudligiga ishonmagan jamiyat haqida so‘z yuritsak, unda insonlarning faqatgina bu dunyo bilan shug‘ullanishi va o‘limdan qo‘rqishi tabiiy hol bo‘ladi.

Kundalik hayotdagi masalalardan tortib, yirik siyosiy voqealargacha odamlarni ma’lum maqsadlar yo‘lida harakat qilishga undovchi va ularga jasorat bag‘ishlovchi asosiy fikr manbai – ikkinchi bir hayotga bo‘lgan e’tiqoddan oziqlanadi. Shu tariqa odamlar bu dunyoda qilgan ezgu ishlari uchun mukofotni oxiratda olajaklariga ishonishgan. Ikkinchi hayotga ishonch esa dafn marosimlarining shakllanishi uchun ham asos bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: Turklarning o‘lim va o‘limdan keyingi hayot haqidagi qarashlari qadimgi davrlardan boshlab turli manbalarda keng yoritilgan. Xususan, **O‘rhun bitiklari**da Bilga xoqonning ukasi Kul Tegin vafotidan keyin aytgan so‘zlari (“Inson o‘g‘li o‘lish uchun yaralgan”) turkiy xalqlarda o‘limning tabiiy hodisa sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi. **Mahmud Koshg‘ariy** esa dunyoning foniyligi va abadiy yashash

mumkin emasligi haqidagi qarashlarni qayd etadi.

Qadimgi manbalarda o‘lim va uni kutib olish odatlari keng yoritilgan. **Xitoy manbalari** Turklarda jangda halok bo‘lishning sharaf sanalganini, kasallikdan o‘lish esa uyat hisoblanganini qayd etadi. **Johiz** (IX asr) turklarning jangga doimiy tayyorligi va o‘limdan qo‘rqmaslikni tarbiya orqali mustahkamlashlarini ta’kidlaydi. Shuningdek, **Bartold** O‘rhun yodgorliklarida turklar o‘z g‘alabalarini dushman qonini to‘kish bilan emas, balki o‘z xalqining mashaqqatlariga sabr qilish bilan ifodalashini qayd etadi.

O‘lim va dafn marosimlari bilan bog‘liq manbalarda 40 soni alohida ahamiyat kasb etgan. **Herodot** Skiflarning o‘likni 40 kun davomida qarindoshlar orasida aylantirib, so‘ng dafn etganini batafsil yozadi. Xuddi shunday, **Oltoy xalqlari**da ham ruhning vafotdan keyin 40 kungacha uy atrofida aylanib yurishi haqidagi tasavvurlar mavjud. Shu bilan birga, mumiyolash amaliyotining ham keng tarqalganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. **Rudenko** va **Ögel** tadqiqotlarida mumiyolash marosimining murakkab va ijtimoiy tabaqaga qarab turlicha amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu an’ana keyinchalik **Saljuqiylar** va dastlabki **Usmoniylar** davrida ham davom etgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar turklarning o‘limni hayotning uzviy qismi sifatida qabul qilganlarini, ruhning davomiyligiga ishonishganini, 40 sonining marosimlarda markaziy o‘rin tutganini va mumiyalash an’anasining ijtimoiy maqom bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda qo‘llangan metodlar quyidagilardan iborat:

1. **Tarixiy-qiyosiy tahlil** – turklarning o‘lim haqidagi qarashlari va marosimlarini qadimgi Skif, Hun, Turk, Uyg‘ur hamda keyingi davr Saljuqiy va Usmoniy amaliyotlari bilan qiyoslash asosida tahlil qilish.

2. **Manbashunoslik yondashuvi** – O‘rhun bitiklari, Dada Qo‘rqut, Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk”, Herodot “Tarix”i kabi yozma manbalarning matnshunoslik asosida o‘rganilishi.

3. **Etnografik va arxeologik dalillarga tayangan yondashuv** – Paziriq, Noin-Ula, Ukok kabi qo‘rg’onlardan topilgan mumiyolangan jasadlar hamda arxeologik topilmalar asosida marosimlarning moddiy izlarini aniqlash.

4. **Madaniyatshunoslik tahlili** – ruh, o‘lim va ikkinchi hayot haqidagi diniy-falsafiy qarashlarning turk dunyoqarashi, ramziy sonlar (xususan, 40) va marosimlar bilan bog‘liqligini izohlash.

5. **Interdisipliner yondashuv** – tarix, arxeologiya, dinshunoslik, adabiyotshunoslik va etnologiya fanlarining integratsiyasi orqali mavzuni har tomonlama yoritish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Har bir insoniy jamiyat singari, turklar ham eng qadimiy davrlardan boshlab o‘lim haqida mulohaza yuritganlar. Ularning o‘lim haqidagi tasavvurlari va qarashlari faqatgina e’tiqodiy dunyoning bir bo‘lagi bo‘lib qolmasdan, balki dunyoviy hayotning shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan. Bu holat, ayniqsa, dafn marosimlari va marhumni tuproqqa qo‘yish jarayonida qo‘llanilgan marosim va rasm-rusumlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Turklar o‘limni ruhning tanani tark etishi sifatida tasavvur qilganlar. Ushbu ruh turkiy madaniy muhitda “tin” deb atalib, “ruh, jon” ma’nolarida ishlatilgan. Mahmud Koshg‘ariy ham o‘limni tariflar ekan, “Anıng tını kesildi” — “uning nafasi uzildi, ruhi chiqdi” deb izoh beradi [20, 2006, j. B. 339].

Turkiylar tasavvurida “tin” bilan bir qatorda ikkinchi bir ruhning mavjudligi haqidagi qarashlar ham uchraydi. Chunki “tin” nafaqat insonlarda, balki o‘sish qobiliyatiga ega bo‘lgan barcha tirik mavjudotlarda mavjud bo‘lgan unsur sifatida

tasavvur qilingan. Biz bugungi ma'noda anglaydigan, ya'ni oxirat hayotida ham muhim rol o'ynaydigan "jon" esa "suna" nomi bilan atalgan.

Turklar hayot tarzlari tufayli tez-tez o'lim bilan yuzlashgan va turli xil o'lim holatlarini ko'rganlar. Shu sababli ular o'limni hayotiy haqiqat sifatida qabul qilgan va undan qo'rqmaganlar. Turklar islomni qabul qilishdan avval ham bu dunyoning foniy va o'tkinchi ekanini anglab yetgan edilar. Shu bois islomni qabul qilgach ham dunyoning foniyligi haqidagi qarashlarini davom ettirdilar. Turk xoqonligi davrida Kul Tegin vafotidan so'ng Bilga xoqonning so'zlari bu tasavvurning yorqin ifodasidir: *"O'zim o'yga cho'mdim. Zamonni Tangri yashar. Inson o'g'li esa o'lish uchun yaralgan."* [10, 2006, B. 27].

Bu dunyoqarash va tafakkur usuli islom qabul qilingan dastlabki davrlarda ham deyarli o'zgarishsiz davom etdi. O'limning muqarrar haqiqat ekanini anglagan turklar tanlash imkoniyati bo'lsa, odatda kutilmagan o'limni, xususan, o'ziga xos alohida maqomga ega bo'lgan jangda halok bo'lishni afzal ko'rganliklari qayd etiladi. Xitoy manbalari Turklarning jangda halok bo'lishni sharaf sanaganlari, kasallikdan o'lib qolishdan esa or qilganlarini xabar qiladi. Shuningdek, ular turklarning urf-odatlari va an'analari hunlar bilan o'xshash ekanini ta'kidlashadi. Bu esa hunlarning ham o'limga xuddi shunday munosabatda bo'lganini ko'rsatadi.

IX asrda yashagan arab tarixchisi va adibi Johizning guvohlik berishicha: *"Turk otiga yo'ldan chiqmaslikni, agar chalg'isa tezlik bilan chopishni o'rgatadi. Bu yo'sinda u, ongiga zararli fikrlar — hayotga ortiqcha bog'lanish va dushman bilan yuzlashishdan qo'rqib, irodasining sinishidan — umidini butkul uzishni istaydi"* [5, 1988, B. 66]. Turklar o'limni qabul qilgan bo'lsalar-da, o'ldirishdan faxrlanmaganlar. V.V. Bartold ta'kidlaganidek: *"O'rxun bitiklarida turklarning og'ir kunlarda qonlari suv kabi oqizilgani haqida so'z boradi. Ammo g'alaba kunlarida boshqa xalqlarning qon to'kishlari haqida gapirilmaydi. Holbuki, mashhur Ossuriya hukmdorlari yodgorliklarida bunday hodisalar maqtanib hikoya qilinadi."*[2, 2006, B. 10].

O'lim holatida ruhning qayerga borishi haqidagi dastlabki yozma dalillar O'rxun bitiklarida uchraydi. Bitiklarda shunday deyiladi: *"Bu yozuvlarni Kul-Teginning jiyani Yollug' Tegin yozdim. Siz aziz o'g'lingizdan, farzandingizdan ham yaxshi boqdingiz. Uchib ketdingiz. Go'yoki osmondagi hayot kabi..."* [10, 2006, B. 31]. Bu ifodalardan ruhning "qush kabi uchib ketishi" hamma odamlarga xosmi yoki faqatgina hukmdorlik maqomidagi shaxslarga tegishlimi – aniq emas. Ammo Turk va Uyg'ur bitiklarida aynan yuksak maqom egalari haqida gap ketganda bu tasvir ishlatilgani ko'rinadi. Masalan, O'rxun bitiklarida davlat arbobining vafoti tasvirlanganda, uning o'lmas ruhi *"shunqor qushi"* (ya'ni, lochin) ruhi bilan qo'shilgani ta'kidlanadi [4, 1970, B. 172]. Shuningdek, Turk xoqonligi va Uyg'ur xoqon sulolalari tasvirlarida ham peshonada afsonaviy qush timsoli uchraydi. Bu tasvir geraldik yoki kosmik ramz bo'lishi mumkin, ammo ruh timsoli sifatida ham talqin qilingan. Keyingi davrlarda ham oq sungur hukmdorlik ruhi ramzi sifatida qaralgan [12, 1978, B. 92–93].

Bu tasavvur dastlab faqat elita vakillari uchun ishlatilgan bo'lsa ham, vaqt o'tishi bilan kengroq ma'noga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Ma'lumki, G'arbiy turklar orasida, hatto islom qabul qilingach ham, "o'ldi" o'rniga *"shunqor bo'ldi"* (ya'ni, "lochin bo'ldi") iborasi ishlatilgan [2, 2006, B. 13]. Shu tariqa turklar o'limni nafasning to'xtashi, ruhning tanadan uchib chiqib ketishi sifatida tasavvur qilganlar. Shuning uchun ham ular ko'pincha "o'ldi" o'rniga *"uchdi"* deb ifoda etganlar [19, 1972, B. 24]. Bundan tashqari, *"uchmoq"* so'zi tarixiy qarash va e'tiqodga muvofiq holda *jannat* ma'nosida qo'llanila

boshlagan. Shu sababli Dada Qo‘rqut duolarida: *“Oq soqolli otangning yeri uchmog‘ bo‘lsin”* degan [13, 1973, B. 15]. Ruhning qush shaklida uchib ketishi haqidagi tasavvur bugungi kunda ham shamanistik jamoalarda uchraydi. Masalan, Altay turklari ham o‘lim chog‘ida ruhning qushga aylanib uchib ketishiga ishonishadi[3, 1968, B. 330].

Turklar hayot va o‘lim o‘rtasida katta tafovut ko‘rmaganlar. Ularning tasavvurida o‘limdan keyingi hayot ham dunyoviy hayotga o‘xshash bo‘lgan. Shu sababli qo‘rg‘onlar – dasht hayotining ijtimoiy iyerarxiyasida muhim o‘rin tutgan shaxslar uchun mo‘ljallangan qabrtoshli majmualar sifatida shakllangan. Skiflar ham marhumlarini qo‘rg‘onlarga dafn etganlar. Herodot ularning marosimlari haqida shunday yozadi: *“Marosim tugagach, har kim qabri ustiga belkurak bilan tuproq tashlaydi va eng baland qabr tepaligini yasash uchun bir-biri bilan bellashadi.”*[16, 2006, B. 323]. Bu ta’rifdan qo‘rg‘onning tipik shakli ko‘z oldimizga keladi. “Qo‘rg‘on” so‘zining bir necha ma’nosi mavjud: qabr, qabrtosh tepaligi, shuningdek, qal’a yoki shaharning mudofaa devori ma’nosida ham ishlatiladi[6, 2007, B. 120]. Aslida qo‘rg‘onlar ko‘chmanchi turklarning hayotiy markazi bo‘lgan dasht chodirlarning marhumlar uchun tayyorlangan ramziy shakli edi. Shu sababdan ham hukmdor chodiri – o‘tovning xitoycha muqobili ham “yer ostidagi g‘or, tepalik yoki qabrtosh” ma’nolarida qo‘llanilgan [22, 1941, B. 524].

Qo‘rg’onning ikki asosiy ma’nosi mavjud:

1. Marhumning saqlanadigan joyi sifatida.
2. Tiriklarning tashqi hujumdan himoyalanadigan joyi sifatida.

Har ikkisi ham “himoya” funksiyasini bildiradi [6, 2007, B. 120]. Bu jihatdan qo‘rg’on va chodir bir xil ramziy vazifani bajargan. Skiflarning qabrlari ham chodir shakliga o‘xshash bo‘lib, bunda “jasad chodir qabr ichida qayta tug‘iladi” degan tasavvur yotgan [23, 1970, B. 202]. Turk xoqonligi davriga oid dafn marosimlarida yog‘ochdan qurilgan yirik chodirlar va gumbazsimon shakllar ishlatilgan [12, 1982, B. 151]. Chodir hayot va o‘lim o‘rtasidagi bog‘liqlik ramzi bo‘lgani uchun, u dafn marosimlarining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan. Hunlarda, Turklarda va Mo‘g‘ullarda marhumning hayotida yashagan chodiri “dafn chodiri” sifatida ishlatilgan yoki shu vazifani bajargan vaqtinchalik inshoot qurilgan. Turklarning dafn marosimlari gumbazsimon chodir atrofida o‘tkazilgan va oxirida bu chodir yoqib yuborilgan [12, 1982, B. 151]. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, turklarda kimdir vafot etganda, uning jasadi chodirga qo‘yilgan, yaqinlari – bolalari, nevaralari, erkak va ayol qarindoshlari bir-bir qo‘y va ot so‘yib, qurbonlik qilganlar. Bulg‘orlar orasida esa marhum vafot etgan kuni erkaklar uning gumbazli chodiri oldida yig‘lab, motam tutganlar va chodir eshigi ustiga bayroq o‘rnatilgan [15, 1995, B. 67].

Turk jamoalarida ruhning o‘lmasligi va inson uchun ikkinchi bir hayotning mavjudligiga bo‘lgan ishonch, marhumlarni narigi dunyoda zarur bo‘ladigan buyumlar va xizmatkorlar bilan birga dafn etish odatini yuzaga keltirgan. Herodotning yozishicha, Skiflar podshohining dafn marosimida qabrda bo‘sh qolgan joylarga uning xotinlaridan biri, qo‘lidan ichimlik olgan kishi, bir oshpaz, quroldor, xizmatkori, xabarchisi hamda otlari ham qo‘yilgan. [16, 2006, B. 323].

Hun jamiyatida ham marhum bilan birga yaqin kishilarning dafn qilinishi odati mavjud bo‘lganini bilamiz [8, 1996: 94]. Xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, Hun davrida marhum bilan birga o‘ldirilgan kishilar soni yuzdan ortiq bo‘lgan [17, 2006, B. 177]. Vizantiya manbalariga ko‘ra, ba’zan Turk xoqonlarining qabrlarida turklarning qo‘liga tushgan dushman lashkarboshilari ham o‘ldirilgan. Bartoldning ta’kidlashicha, bu odatning maqsadi boshqa shamanistik

qavmlarda bo‘lgani kabi, o‘ldirilgan kishining qiyomat kunida uni o‘ldirgan yoki nomidan o‘ldirilgan shaxsga xizmat qilishiga bo‘lgan ishonchdir [2, 2006, B. 12]. Turk jamoalarida ikkinchi hayotga ishonch o‘liklarni turli buyumlar bilan birga dafn etish odatini shakllantirgan edi. Skiflar narigi dunyodagi ijtimoiy tartib ham bu dunyodagidan farq qilmaydi, deb hisoblashgan. Shu bois, marhumning narigi dunyoda ham podshoh, jangchi yoki xizmatkor sifatida yashashini ta’minlash uchun uning yoniga ko‘plab buyumlar qo‘yilgan[14, 2006, B. 173]. Xitoy yilnomalariga ko‘ra, “Hunlar o‘liklarini tobutga qo‘yar edilar. Bu tobut ikki qavatli bo‘lib, ichki va tashqi qismlardan iborat bo‘lardi. Tobut oltin va kumush naqshli matolar va mo‘yna bilan yopilgan” [17, 2006, B. 177]. Bundan tashqari, Hun jamoalarida marhumning mol-mulki ham qabrga qo‘yilganini Xitoy manbalari xabar qiladi [8, 1996, B. 94]. Hunlarda ayniqsa sulola a’zolari uchun qurilgan qo‘rg’onlar odatda ikki xonali bo‘lgan. Xonalardan birida marhumning yog‘och sandiqdagi jasadi, ikkinchisida esa otlari va shaxsiy buyumlari joylashtirilgan [21, 2003, B. 174].

Turk jamoalarida tobutda dafn etish va mumiyolash odati mavjud bo‘lgani kabi, keng tarqalmagan bo‘lsa-da, marhumlarni kuydirish odati ham mavjud edi. Xitoy manbalarida Hunlarda o‘likni kuydirish odati ayrim hollarda uchragani qayd etilgan[8, 1996, B. 94]. Yevropa Hunlarida ham bu odat mavjud bo‘lgani ma’lum. Ögel bu holatni mazdak ta’limoti ta’sirida bo‘lgan Alanlar bilan aloqalar natijasida shakllangan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Turk xoqonligi davrida ham bu amaliyot kuzatilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu odat asosan chet el dinlarining, ayniqsa buddizm ta’siri ostida shakllangan. Manbalarda qayd etilishicha, Turklar marhumni mol-mulki va otlari bilan birga yoqib yuborar, so‘ngra kulini qabrlarga qo‘yar edilar [8, 1996, B. 86]. Xitoy manbalariga ko‘ra, Shapolyo 582-yilda Xitoyga yurish qilganida, Cheupan hududida turklar bilan xitoyliklar o‘rtasida uch kun va uch kecha davom etgan janglar yuz bergan. Turklar jang maydonidan chekinishdan oldin o‘z o‘liklarini kuydirganlari haqida xabar beriladi. Milodiy 630-yilda Turklarning o‘likni yoqish odatini tashlab, qayta dafn etishga qaytganlari Xitoy imperatorini g‘azablantirgan va u turk elchisiga: “Endi siz o‘liklaringizni yoqmay, faqatgina ko‘myapsizlar”, degan. 634 yilda esa Turk xoqoni vafotidan so‘ng, turklar o‘z odat va urf-odatlariga binoan uning jasadini Pa daryosining sharqida yoqib yuborganlar, so‘ngra esa uni tuproqqa dafn etganlar[18, 1968, B. 104].

Turk madaniyatida o‘lim va dafn marosimlari turli davrlarda amalga oshirilgan. Turk xalqlariga mansubligi borasida kuchli dalillarga ega bo‘lgan Skiflarda, kimdir vafot etganda marhum eng yaqinlari tomonidan aravaga qo‘yilib, qarindosh-urug‘lari huzuriga olib borilib aylantirilgan. Qirq kun davomida marhum bir qarindoshidan boshqasiga sayr qildirilgachgina ko‘milgan [6, 2007, B. 118]. O‘likni qirq kun davomida aylantirish urfi, islomdan keyin ham turklar orasida yashab qolgan bo‘lib, buni faqatgina ularga xos an’ana sifatida, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) sharafiga Sulaymon Chalabiy tomonidan yozilgan *Mavlid*ning qirqinchi kuni o‘qilishi orqali ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib, turklar orasida **qirq soni** alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarixiy manbalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, qirq soni o‘lim bilan yangi hayot o‘rtasidagi davrni anglatgan. Xitoy manbalarida qirq kunlik muddat aniq zikr etilmagan bo‘lsa-da, dafn va marosim o‘rtasida ma’lum vaqt o‘tganiga ishora qilinadi. Ularning yozishicha, agar turk xoqonligi davrida kimdir bahor yoki yozda vafot etsa, marhumning dafn marosimi o‘tloqlar va daraxtlardagi barglar sarg‘ayguncha kutilardi; agar kuz yoki qishda

vafot etsa, o‘simliklarning urug‘lanib gullash mavsumigacha marosim kechiktirilardi.

Oltoy xalqlarining e’tiqodiga ko‘ra ham qirq soni o‘lim bilan bog‘liq edi. Ularning tasavvurida o‘lim chog‘ida ruh – ya’ni *suna* – tanadan ajralib, xira tuman holiga kelar va unga *sunazinin uzudu* yoki shunchaki *uzut* deyilardi. Bu ruh bir muddat marhumning uyi va qarindoshlari atrofida aylanib yurardi. Bola ruhi yetti kun, kattalarniki esa qirq kun shu tarzda aylanib yurardi. Qirq kundan so‘ng marhumning qarindoshlari *“ruhlar bayrami”*ni o‘tkazishardi. Bayram munosabati bilan hayvon so‘yilib, umumiy dasturxon yozilardi. Demak, qirq kun ruhning boshqa olamga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan vaqt sifatida talqin etilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, qirq soni uyg‘ur tilidagi *O‘g‘uzxon dostoni*da ham ta’kidlanadi. To‘liq bo‘lmagan bu dostonning uyg‘urcha nusxasida O‘g‘uz tug‘ilgandan qirq kun o‘tib ulg‘ayadi, yuradi va o‘ynaydi, otlarni boqadi, ot minadi, ov qiladi. Ya’ni O‘g‘uz hayotga to‘liq moslashishni aynan qirq kunda amalga oshiradi va kattalardek harakat qila boshlaydi.

Turk madaniyatidagi bu e’tiqod, ya’ni o‘lim va dafn oralig‘ida vaqtning cho‘zilishi, ularni qadim zamonlardan boshlab marhumni, ayniqsa kutilish davrida xavfsiz saqlash choralarini izlashga undagan. Bu esa boshqa ko‘plab xalqlarda bo‘lgani kabi, turklarda ham mumiyolash an’anasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Chunki mumiyolash murdaning buzilib ketish xavfini yo‘qotadigan yagona usul edi; olov go‘sht bilan birga suyaklarni ham kuydirishi mumkin, yirtqich hayvonlar esa suyaklarni sindirishi mumkin edi. Shunga qaramay, murdani murakkab usullar bilan mumiyolash faqat hayotida katta kuch va mavqega ega kishilar uchun qo‘llanilgan. Uning maqsadi ular boshqa dunyoda ham qudratli shaxs sifatida qolishlari edi [6, 2007, B. 123]. Skiflar haqida so‘z yuritgan Herodot, mumiyolash jarayonini batafsil tasvirlab bergan. Uning yozishicha, skiflar “podshohlari vafot etganda eni va bo‘yi bir xil bo‘lgan, to‘rtburchak shaklida katta qabr qazishardi. Tana mum bilan qoplanar, qorniga kesik qilinib, ichi bo‘shatilar va maydanoz urug‘i, anason, maydalangan ko‘katlar hamda xushbo‘y o‘simliklar bilan to‘ldirilib, so‘ng tikib qo‘yilardi” [16, 2006, B. 322-323].

Turklarda jasadni mumiyolash odati Hun jamiyatida ham mavjud bo‘lgan. Ko‘plab hun qo‘rg‘onlaridan mumiyolangan jasadlar topilgan. Mumiyolangan jasad yog‘och sandiqqa qo‘yilib, yuzi sharqqa qaratilgan[21, 2003, B. 174]. Turklar Misrliklar singari marhumning ijtimoiy mavqeyiga qarab turli mumiyolash usullaridan foydalanganlar. Marhumlarning terisi “T” shaklida kesilib, qayta tikilgan. Ehtimol, mushaklari olib tashlangan bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday mumiyolash uslubi Noin-Ul va Yeniseydagi Oglakti qo‘rg’onlarida ham uchraydi. 1993-yilda Janubiy Sibirning Oltoy hududida joylashgan Ukok qo‘rg‘onida ham mumiyolangan skif ayoli topilgan. Ehtimol, Bilga xoqon, Kul-Tegin va To‘nyuquq singari Turk xoqonligi buyuklarining dafn marosimlari o‘limlaridan ancha vaqt o‘tib o‘tkazilgan bo‘lsa, bu jasadlarning maxsus dafn qilinib mumiyolanishi bilan bog‘liqdir.

XULOSA: Turklar insonni yashatib turuvchi kuch ruhdir, deb hisoblaganlar. Bu ruh **“tin”** va **“suna”** tushunchalari bilan ifoda etilgan. Shaxsning o‘limi esa ruhning tanani tark etishi sifatida talqin qilingan. Inson vafot etganidan so‘ng ham ruh vositasida mavjudligini davom ettiradi, deb ishonilgan. O‘lim haqiqatini qabul qilgan turklar o‘limdan qo‘rqmaganlar, shuningdek, o‘ldirishdan ham faxrlanmaganlar. Islomdan avvalgi davrda ham turklar ikkinchi bir hayot mavjudligiga ishonishgan. Biroq bu ikkinchi hayot tasavvurida jannat va do‘zax tushunchalari mavjud emas edi. Inson ruhining qush shaklida bo‘lishi va o‘lim vaqtida tanani tark etishi haqidagi tasavvur keng tarqalgan edi. Shu sababli turklar **“o‘ldi”** degan ibora o‘rniga **“uchdi”**

ifodasidan foydalanishgan. Islom qabul qilingandan keyin esa "uchmoq" so'zi jannat tushunchasining ma'nodoshiga aylangan. Turklar mavjud bo'lgan boshqa hayot bu dunyo hayotidan farq qilmaydi, deb hisoblashgan. Insonlar bu dunyoda ega bo'lgan narsalarining u dunyoda ham o'z holicha davom etishiga ishonganlar. Shu sababli, ayniqsa qudratli shaxslar haqida so'z borganda, qurilgan qo'rg'on qabrlar xuddi chodirlarga o'xshatilgan. Bu esa marhum ikkinchi hayotini ham chodir ichida davom ettiradi, degan qarash bilan bog'liq edi. Skiflar davrida keng tarqalgan, keyinchalik esa faqatgina hukmron tabaqaga mansub shaxslarga nisbatan qo'llanilgan **"o'likni kuzatish"** odati mavjud bo'lgan. Bunda marhumga u dunyoda xizmat qilishi uchun ayrim odamlar va hayvonlarning ham qurbon qilinishi kuzatilgan. Masalan, Skiflar davrida vafot etgan podshoh bilan birga uning oshpazi, xotini yoki hatto ayrim dushmanlarining ham dafn etilishi ushbu e'tiqodning eng aniq ko'rinishidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bang, W., & Rahmeti, G. R. (1936). *Oğuz Kağan Destanı*. İstanbul: İÜEF Türk Dili Seminerleri.
2. Barthold, V. V. (2006). *Orta Asya Türk Tarihi Hakkında Dersler* (Haz. K. Y. Kopraman & İ. Aka). Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
3. Buluç, S. (1968). Şamanlık. *İslam Ansiklopedisi*, C. XI.
4. Caferoğlu, A. (1970). Türklerde Av Kültü ve Müessesesi. In *VII. Türk Tarih Kongresi* (pp. 169–175).
5. Cahiz, E. O. A. b. B. el- (1998). *Hilafet Ordusunun Menkıbeleri ve Türkler'in Faziletleri* (Çev. R. Şeşen, 2. baskı). Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları.
6. Durmuş, İ. (2002). İskitlerin Kimliği. In *Türkler* (C. IV, pp. 620–625). Ankara: Yeni Türkiye Yayınları.
7. Durmuş, İ. (2007). *İskitler*. İstanbul: Analiz Yayınları.
8. Eberhard, W. (1996). *Çin'in Şimal Komşuları* (Çev. N. Uluğtuğ). Ankara: TTK Yayınları.
9. Eliade, M. (2003). *Dinsel İnançlar ve Düşünceler Tarihi* (Çev. A. Berktay). İstanbul: Kabalcı Yayınları.
10. Ergin, M. (2006). *Orhun Abideleri* (37. baskı). İstanbul: Boğaziçi Yayınları.
11. Esin, E. (1978). *İslamiyetten Önceki Türk Kültür Tarihi ve İslama Giriş*. İstanbul.
12. Esin, E. (1982). Bengü Taş The Rock. In *Studia Turcologica, Memorie Alexii Bombaci Dicata*. Napoli.
13. Gökyay, O. Ş. (1973). *Dedem Korkutun Kitabı*. İstanbul: Başbakanlık Kültür Müsteşarlığı Yayınları.
14. Grakov, B. N. (2006). *İskitler* (Çev. A. Batur). İstanbul: Selenge Yayınları.
15. İbn Fazlan. (1995). *Seyahatname* (Çev. R. Şeşen). İstanbul: Bedir Yayınları.
16. Herodotos. (2006). *Tarih* (Çev. M. Ökmen, 3. baskı). İstanbul: Türkiye İş Bankası Yayınları.
17. İnan, A. (2006). *Tarihte ve Bugün Şamanizm* (6. baskı). Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
18. Jen Tang, C. (1968). *T'ang Devrindeki (618–745) Doğu Göktürkleri Hakkında Yeni Belgeler*. Taipei.
19. Kafesoğlu, İ. (1972). Eski Türk Dini. *Ülkü Dergisi*, (3), 1–34.

20. Kaşgarlı Mahmud. (2006). *Divanü Lugat-it-Türk* (Cilt I–IV, Çev. B. Atalay). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

21. Koca, S. (2003). *Türk Kültürünün Temelleri* (Cilt II). Ankara: Odes Kültür Yayınları.

22. Lattimore, O. (1941). *Inner Asian Frontiers of China*. New York: American Geographical Society.

23. Minns, E. H. (1970). The Scythian and Northern Nomads. In *Cambridge Ancient History* (pp. 187–204). Cambridge: Cambridge University Press.